Fan va ta’lim integratsiyasi: Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti va Jizzax davlat pedagogika instituti hamkorligi davom etmoqda

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti (FTI) direktori, professor X. Olimov A. Kodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika institutiga (DGPI) tashrif buyurdi. Ushbu tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5032-sonli qaroriga muvofiq tashkil etildi, bu fan va ta'limni birlashtirish sohasidagi bir qator vazifalarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

X.Olimov mazkur Institutning fizika-matematika fakultetida fizika va astronomiya bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha yakuniy davlat attestatsiyasida hay’at raisi sifatida qatnashdi. Shuningdek, fizika ta’lim yo’nalishi bo’yicha tahsil olayotgan 1 va 3 kurs talabalariga “Hozirgi zamon fizikasining dolzarb muammolari” mavzusida seminar-ma’ruza o’tkazdi.



Ayniqsa, Olamning yaratilishiga olib kelgan “Katta portlashdan” bir necha mikrosekunddan keyin vujudga kelgan kvark-glyuon plazma holatidagi o’ta issiq va zich materiya, uning temperaturasi Quyosh markazidagi temperaturadan taxminan yuz ming barobar ortiq bo’lishi to’g’risida ma’ruza paytida berilgan ma’lumot talabalarda katta qiziqish uyg’otdi. Katta adron kollayderidagi (SERN, Shveytsariya) rekord darajasidagi yuqori energiyali og’ir qo’rg’oshin ionlari to’qnashuvlarida hosil bo’lgan o’ta zich va issiq materiya, shu jumladan, kvark-glyuon plazma, xossalarini batafsil o’rganish hamda mukammal kuchli o’zaro ta’sir nazariyasini yaratish hozirgi zamon fizikasining eng dolzarb muammolari qatorida bo’lganligi ma’ruzada ta’kidlab o’tildi.

Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti hamda Jizzax davlat pedagogika instituti o’rtasidagi yadro va elementar zarrachalar fizikasi, jumladan, yuqori energiyalar fizikasi sohasidagi qo’shma ilmiy tadqiqotlar hamda bakalavr va magistrlarni tayyorlash bo’yicha yaqin hamkorlik 2003-yildan boshlangan bo’lib, hozirgi kungacha muvaffaqiyatli davom etmoqda. Fanlar akademiyasi ilmiy tadqiqot instituti hamda oliy ta’lim muassasasi ushbu sermahsul hamkorligi natijasida yuqori energiyalar fizikasi sohasida 50dan ortiq qo’shma ilmiy maqolalar va tezislar chop etildi, JDPIning fizika yo’nalishidagi 30dan ortiq bakalavr hamda magistrlik dissertatsiyalariga muvaffaqiyatli ilmiy rahbarlik qilindi.